

“XAZOYIN UL-MAONIY”NING TENGSIZ QO‘LYOZMA NUSXASI

A.H.Shar‘iy JUZJONIY,

“Turon fanlar akademiyasi akademigi,
huquq fanlari doktori, professor

Abstract: *This article deals with the unique manuscript of Alisher Navoiy, “Xazoyin ul-maoniy”, possibly written in 1495, six years before the death of the great poet. This manuscript is most likely the most accurate and the oldest one since there are multiple seals of the 988 hijriy year which have been sealed on every page of the book. It is written in a beautiful nastaliq script on the fine paper without absolute errors. Unfortunately, there are some missing pages of the manuscript that might contain the name of the scribe and the general pages of this finest composition.*

Based on the study of the manuscript, it is said that there are 19999 verses of gazals and 2379 verses of qit‘a, muhammas, musaddas, masnaviy, muammo, and fard in this composition. The author included 50 qit‘a in “G‘aroyib us-sig‘ar”, 51 qit‘a in “Navodir ush-shabob”, 58 qit‘a in “Badoe‘ ul-vasat”, and 50 qit‘a in “Favoib ul-kibar”. This manuscript of Navoi contains totally 675 folios, 1350 pages with some folios restored due to the constant use of the manuscript.

There are also more than 30 seals on the margins of the manuscript. On the 87th page of the manuscript there is a round seal on the nastaliq script with the initials “Abulg‘ozi Muhammad Ibrohimxon ibn Hoji Muhammadxon”. These seals like many other seals sealed on the other pages of this manuscript provide an invaluable clue to the patron of the masterpiece. He was the prince of the Timurid descent Sulton Muhammad Ibrohimxon ibn Hoji Muhammadxon.

Key words: *unique manuscript, Alisher Navoi, ghazal, folio, seal, script*

1952 yili o‘quvchiligim davrida bir kuni rahmatli tog‘am Mirzo Muhammad Qosim Qozizoda bilan marhum toshkentlik shoir va olim qori Sharafuddin Sharafning o‘g‘li Maxdum Hisomiddin akaning uyiga bordik. Tog‘am vatanparvar bir siyosat arbobi sifatida “Barq” taxallusi bilan she‘r yozardi va mamlakat parlamentida maorif va iqtisod komissiyalarining raisi edi hamda apozitsiya guruhining taniqli a‘zolari bi-

lan bir safda turardi. Hisomiddin aka esa tijorat ishi bilan shug‘ullansa ham, she‘r va adabiyotga qiziqardi va Alisher Navoiyning ashaddiy muxlislaridan edi. Ular shaxmat o‘yini shaydosi va ikkalasi ham katta mahorat egasi edi.

Suhbat chog‘ida tog‘am meni Maxdumga tanitib, jiyanim she‘riy iste‘dod egasi, o‘zbek va fors tillarida she‘r yozadi dedi. Mezbon qiziqib, she‘r va adabiyot bo‘yicha suhbat jarayoni-

da, Navoiyning she‘rlarini o‘qiganmisiz deb mendan so‘radi. Men, ha Maxdum janoblari, kamina Navoiy hazratlarining irodmandimandan, uning bir devonini yoshlikda o‘qiganman, undan keyin “Xamsa”ni bir marta, “Farhod va Shirin” dostonini ikki marta o‘qiganman. Hozir ham “Xamsa” kitobi men bilan bor. U mendan Navoiy she‘rlaridan o‘qib berishimni so‘radi. Men “G‘aroyib us-sig‘ar”dan birinchi g‘azalning quyidagi matla‘ini o‘qib berdim:

*Ashraqt min aksi shamsil ka’si
anvorul hudo,
Yor aksin mayda ko‘r deb, jomdin
chiqti sado.*

Shuningdek, Xusrav bilan Farhodning munozarasidan quyidagi baytlarni o‘qidim:

Dedi: qaydinsan ey majnuni gumroh,

Dedi: majnun vatandin qayda ogoh.

Dedi: qay chog‘din o‘ldung ishq aro mast,

Dedi: ruh ermas erdi tang‘a payvast.

Dedi: nedur sanga olamda pasha,

Dedi: ishq ichra majnunluq hame-sha.

Dedi: bu ishqdin inkor qilg‘il,

Dedi: bu so‘zdin istig‘for qilg‘il.

Rahmatli Maxdum nihoyat quvondi, meni alqishlab¹ tashviq qildi. Hisomiddin aka uchun bu bir kutilmagan uchrashuv edi. U tog‘amga qarata: “Men hanuzgacha jiyaningizdek Navoiy asarlariga qiziquvchan va uning mazmuniga tushunadigan sakkizinchi sinf o‘quvchisini ko‘rmaganman” dedi va o‘rnidan turib ichki xonaga kirdi va muqaddas kitoblar kabi rumolga o‘ralgan bir kitobni olib chiqib dedi: “Bu qimmatli kitob

Navoiyning “Xazoyin ul-maoniy” asari, to‘rt devondan iborat. Bu kitob tengi yo‘q bir qo‘lyozma, hozirgacha hech kimga berganim yo‘q. Agar Qozizoda domla janoblari kafolat bersalar, bir oygacha sizga amonat berishim mumkin”. Mening iltimosim va tog‘amning kafolati asosida u kitobni ikki oygacha kamina-ga amonat sifatida topshirdi.

Men ikki oy davomida ushbu mislsiz “Xazoyin ul-maoniy” qo‘lyozma nusxasini diqqat bilan boshdan-oyoq ko‘rib chiqib, turli joylaridan 20 betlik kerakli materiallarni ko‘chirib oldim. Bu kabi bir nafis va qimmatli asar mening ixtiyorimda bo‘lganini katta bir yutuq hisoblab, uning betlari soni, she‘r janrlari turlari va har birining baytlari sonini aniqlab daftarimga yozib oldim.

O‘sha vaqt mening hisobimga ko‘ra mazkur to‘rt devondagi mavjud g‘azallar 19999 baytga yetib borardi, oxiridan bir necha varaq va matn ichidan 2 varaq tushgan edi. Bulardan tashqari undagi qit‘alar, muxammaslar, musaddas, masnaviy va boshqalar, muammo, lug‘at va fardlar bilan 2379 baytga yetib borardi. Shu yo‘sinda qo‘lyozma hammasi bo‘lib taxminan 22378 baytni o‘z ichiga olardi. Misol suratda baytlar sonini diqqat bilan quyidagidek hisoblaganman: hikmat, axloq va odob, nukta va latifalar bo‘yicha 209 qit‘a mavjud bo‘lib, ularning baytlari soni majmuan 498 baytga yetib boradi. Jumladan, “G‘aroyib us-sig‘ar”da 50 qit‘a, “Navodir ush-shibob”da 51 qit‘a, “Badoi ul-vasat”da 58 va “Favoid ul-kibar”da 50 qit‘a bor edi.

Shuningdek, g‘azallar sonini radif asosida quyidagi tartibda hisoblaganman: alif radifda 148 g‘azal va har devonda 37 g‘azal bor. “B” radifli 108 g‘azal va har devonda 27 g‘azal bor. “J” radifida 4 g‘azal va har devonda 1

¹ Bosh muharrir taklifi bilan maqola muallif lahjasida e‘lon qilinmoqda.

g'azal bor. Shuningdek, oxirigacha. Shu kabi musaddaslar va muxammaslar sonini, muxammas qilingan g'azallar va har devondagi tarji'bandlarni, bandlar soni va har bir tarji'ni qayd qilish bilan ko'rsatganman. Masalan, "Navodir"dagi tarji':

*Baqosizdur jahon ra'nosi, valloh,
Jahon ra'nosi yo'qkim, mosival-loh.*

Hurmatli Maxdum Hisomiddinga tegishli Amiri kabir Alisher Navoiyning "Xazoyin ul-maoniy" qo'lyozma nusxasi 675 varaq (1350 bet)dan iborat bo'lib, aytib o'tganimizdek, bir necha varaqlari tushgan va bir qator varaqlari ko'p ishlatilishi natijasida yirtilgan yoki uzilgani uchun, mahorat bilan remont va shaffoflik qilingan. Nusxa chiroyli nasta'liq xati bilan nafis qog'ozga butunlay to'g'ri ko'chirilgan. Men o'sha vaqt har qancha qidirsam ham, unda noto'g'ri yozilgan biror so'z yoki iboraga duch kelmadim. Lekin, afsuski, kitobning oxiridan bir necha varaq tushgani sababli, ushbu qimmatli qo'lyozmaning kotibi va undagi baytlarning umumiy soni daqiq suratda ma'lum emas.

Kitobdagi muhrlar va iboralar

Qo'lyozmaning hoshiyalarida 30dan ortiq muhr va iboralar bor. Ulardan 9 tasi o'qib bo'lmaydigan darajada xira. Biz quyida ularning ayrimlari haqida ma'lumot beramiz:

Nusxaning 87-betidagi doiraviy shakl muhrda quyidagi so'zlar nasx xati bilan yozilgan: "Abulg'ozni Muhammad Ibrohimxon ibn Hoji Muhammadxon".

114-betda shu shakldagi muhrda quyidagi so'zlar nasx yozuvida bitilgan: "Sulton Muhammad Ibrohim ibn Hoji Muhammadxon, sana 988".

160 va 192-betlarda, 114-betdagi muhr o'sha iboralar va sana (988) bilan bosilgan bo'lib, uning tagida bir o'n burchakli muhr quyidagi iboralar bilan mavjud: "Va-mo tavfiqi illo billoh al-'abd Muhammad Ibrohimxon sana 988".

20-betda 3 ta muhr bor: o'n qirrali muhr "Va-mo tavfiqi illo billoh al-'abd Muhammad Ibrohimxon" iboralar bilan.

Doiraviy muhr "al-mutavakkilalloh al-malik al-mannon sulton Do'st Muhammadxon ibn..." iboralar bilan ko'zga tashlanadi. Birinchi muhrning o'zi.

Ko'pincha qo'lyozma betlarida Sulton Ibrohimning muhrlari, ayrim betlarda esa Do'st Muhammadxonning muhri ko'zga ko'rinadi.

502-betda bir kichik doira ichida "Muhammad Ibrohim Bahodur" va uning osti va ustida "rosti rusti" – Amir Temur uzugidagi ikki kalima yozilgan.

Kitobning 720-beti hoshiyasida katta harflar bilan yozilgan quyidagi iboralar diqqatni o'ziga tortadi: "Hozo devonu ash'ori amiri kabiyr olim, odil Amir Alisher sahibuhu Sulton Muhammad Ibrohim xallada-allohu mulkahu" (bu buyuk amir olim, odil Amir Alisherning she'rlari devonining egasi Sulton Muhammad Ibrohim, Alloh uning mulkini abadiylashtirsin).

801-betda bu ibora mavjud: "Hozo devonu Mir Alisher Sulton Husayn Mirzo".

1129-betda quyidagi iboralar bor: "Almu'tasim bi-inoyatilloh almalik almannon Sulton Do'st Muhammad solu ju'axon".

1279-betda "alvosiq bilmalikel-vali sayyidiy Muso ibn Sayyid Ali" iborali muhr bor. Shu muhr 1329-betda ham takror bosilgan.

Xulosa

Qo‘lyozmaning ayrim betlari hoshiyalarida bosilgan muhrlar va yozilgan qisqa iboralardan quyidagidek xulosa chiqarishimiz mumkin: bu qo‘lyozmaning egasi temuriy podshohlardan biri Sulton Muhammad Ibrohimxon ibn Hoji Muhammadxon bo‘lgan. 720-bet hoshiyasining o‘ng tomonida katta harflar bilan nasta‘liq xatida yozilgan iboralarda bu kishi kitobning egasi ekanligi ”sohibu-egasi” so‘zi bilan quyidagidek ifodalangan: “sohibuhu Sulton Muhammad Ibrohim xallada-allohu mulkahu”. Uning ko‘p muhrlaridan tashqari 502-betda bir kichik doirada “Muhammad Ibrohim Bahodur” va uning osti va ustida “rosti rusti”-Amir Temur uzugidagi ikki kalima yozilgani shundan dalolat beradi. Hozircha uning kim ekanligi va qaerda hukumat qilganligi bizga ma‘lum emas.

988-sananing necha yerda qayd bo‘lganligi shundan dalolat beradiki, u temuriylar davrida yashagan.

Sulton Muhammadxon nomi bilan necha joyda bosilgan muhrlar aftidan shuni ko‘rsatadiki, mazkur kitob birinchi egasidan keyin uning qo‘liga o‘tgan.

Solu Ju‘axon va Sayyidi Muso ibn Sayyid Ali ismlari aniqlanmadi.

801-bet hoshiyasida katta harflar bilan yozilgan: “Hozo devonu Mir Alisher Sulton Husayn Mirzo” iboralari asosida mazkur kitob Husayn Boyqaro kutubxonasiga tegishli bo‘lgan, so‘ngra Sulton Ibrohimga o‘tgan deb taxmin qilish mumkin.

Bu maqolaning yozilish sabablari quyidagicha: men ikki yil oldin Navoiy hazratlarining quyidagi ruboiysini uning tug‘ilgan kuni munosabati bilan facebookda nashr qilgan edim:

*Dedim zaqaning tutub saqog‘igdin
o‘pay,
Ko‘z qoshinda surtubon qabog‘ing-
din o‘pay,
Guldek yuzung islabon dudog‘indin
o‘pay,
Yo‘q yo‘qki agar desang ayog‘ingdin
o‘pay.*

Do‘stlardan biri “ayrim kishilar Navoiy she‘rlarini noto‘g‘ri yozib xatoga yo‘l qo‘yadilar” deb da‘vo qilib, men yozgan ruboiyda ataylab “zaqaning” so‘zi o‘rnida “zanaxing” omiyona so‘zini yozgan holda misol sifatida ko‘rsatib, uning to‘g‘ri shaklini quyidagidek keltirgan edi:

*Dedim zaqaning tutub saqog‘ingni
o‘pay,
Ko‘z qoshingga surtubon qabog‘ing-
ni o‘pay,
Guldek yuzung islabon dudog‘ingni
o‘pay,
Yo‘q, yo‘q, yo‘q agar desang ayog‘ing-
ni o‘pay*

[Navoiy, A, "G‘aroyib us-sig‘ar", 1988, 120-ruboiy].

Men ruboiyning to‘g‘riligini aniqlash uchun o‘z shaxsiy arxivimga murojaat qilib uning asl matnini esdalik daftarlarimning biridan topib oldim. Men uni bundan 67 yil burun rahmatli Hisomiddin Sharafiyga tegishli tengsiz “Xazoyin ul-maoniy” nusxasidan ko‘chirib olgan edim. Fikrimcha, uchbu kitobning varaqlariga 988 yil, ya‘ni Navoiyning vafotidan 6 yil oldin muhrlar bosilgan bo‘lib, eng to‘g‘ri va eng qadimiy nusxa bo‘lishi mumkin.

Bu qo‘lyozma Navoiyning hayotlik chog‘ida chiroyli xat bilan xatolarga yo‘l qo‘ymasdan ko‘chirilgan bo‘lib, temuriy shohlar kutubxonalarida saqlangan-

ligiga asoslanib aytish mumkinki, Navoiyning nazaridan o'tgan bo'lishi ham mumkin. Shunga ko'ra, mazkur ruboiyning men nash qilgan matni butunlay to'g'ri va xalqimiz muhovarasiga-dialektiga yaqinroqdir. Bundan tashqari, Toshkent nashridagi matnda bir misrada, bir so'zning uch marta takrorlanishi (yo'q yo'q yo'q) shakliga so'z fasohatiga xalal yetkazadi.

Hozir "Xazoyin .."ning bu nusxasi qayerda?

Bir Amerikada yashovchi do'stimiz hurmatli Said Nasafiy yordami bilan Kanada o'lkasida yashovchi hurmatli Hisomiddin Maxdumning ukalari Kamoluddin Sharafiy bilan tanishdik. U kishi va honimlari Oliya Sharafiy lutfan otalari Domullo Bedil va onalari Oppog' Oyining suratlarini menga yubordilar. Kamoliddin akaning aytishlaricha, Hisomuddin akaga tegishli "Xazoyin ul-maoniy"ning tengsiz qo'lyozma nusxasi amakilari marhum Jamoluddin aka orqali O'zbekiston birinchi prezidenti Islom Karimovga Sharafiylar oilasi tomonidan hadya qilingan ekan. Prezident buyrug'i asosida u kishiga ushbu tarixiy ahamiyatga ega xizmatlari uchun e'zozlab, do'ppi va chapon kiydirgan ekanlar.

Men Toshkentga safarlarim jarayonida kutubxonalarni qidirib ko'rdim. Alisher Navoiy adabiyot muzeyi rektori hurmatli do'stimiz Saidbek Hasanov "Xazoyin.."ning bir nusxasi bizda bor deb meni kutubxona mudiri bilan taishtirdi. U kishi (afsuski, otlarini unutibman) kitobni qisqagina ma'lumotnoma bilan oldimga qo'ydi. Unga ko'ra, qo'lyozma to'rt devondan iborat bo'lib, qunt bilan ko'chirilganligi sezilib turardi. Matn yupqa Qo'qon qo'g'oziga qora rang bilan yirik nasta'liq xatida yozilgan.

Matn ikki ustunda, har sahifada 21 qator joylashgan. Atrofi qizil siyoh bilan jadvalga olingan. Sarlavhaning hoshiyasi qizil rang bilan ajratilgan. Kitob sohibi Muhammad va kotibi Mullo Muqim Samarqandiy ibn usto Bobojon ekan.

Qo'lyozma ola rangli naqshinkor kartun muqovaga Bazzozon olingan. Kitob Toshkentda do'konida tugatilgan. Kitob oxirida 1274/1857-1858 sanasi yozilgan. Har holda bu chiroyli kitob men qidirib yurgan noyob qo'lyozma emasdi.

O'tgan yili Fanlar akademiyasi qoshidagi Abu Rayhon Beruniy nomidagi sharqshunoslik instituti direktori do'stim Nematullo Muhammedovdan bu haqida yordam so'radim. Uning tashabbusi bilan mazkur nodir asarini topishga muvaffaq bo'ldim. Navoiy "Xazoyin ul-maoniy"ning ushbu qo'lyozma nusxasi Islom Karimov tomonidan institut kutubxonasiga yuborilgan va hozir u Hamid Sulaymon nomidagi qo'lyozmalar fondida 7580 raqami ostida saqlanar ekan.

Qo'lyozmani boshdan adog'igacha tekshirib ko'rdim; aynan men 67 yil oldin ko'rgan qo'lyozmaning o'zi edi. Undan ushbu maqolada berilgan 4 betini kopyiya qilib oldim va bu nodir va tengsiz qo'lyozmani Sharafiylar oilasi nomidan hadya qilgan Jamoluddin aka va uni Abu Rayhon Beruniy kutubxonasiga yuborib, yo'qolishining oldini olgan rahmatli Islom Karimov ruhlari shod bo'lsin deb duo qildim.

Mazkur qo'lyozma Navoiy she'rlari nashrida yo'l qo'yilgan ayrim xatolarni to'g'rilash uchun eng ishonarli manba bo'lishi mumkin. O'zbekiston navoiyshunos olimlari ushbu nodir nusxani to'liq tekshirib, amaliyotga kiritadilar degan umiddaman.